



AYRIM MEVALAR VA SABSAVOTLARNI SERTIFIKATLASH VA ULARNI QO'LLASH

S.Mamatkulova

Farg'ona davlat universiteti,
katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7263200>

ARTICLE INFO

Received: 08th October 2022

Accepted: 18th October 2022

Online: 29th October 2022

KEY WORDS

Sinflash, sertifikatlash, tozalash,
identifikatsiyalash, *Helianthus
tuberosus*.

ABSTRACT

O'zbekiston Respublikasida Tashqi iqtisodiy faoliyatida tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) asosida belgilanadi. Tovarning sifat ko'rsatkichi, asilliligi, tannarxi, ekologik zararsizligini belgilashda albatta uning kimyoviy tarkibini o'rganish va shunga mos ravishda raqamli tovar kodini aniqlash talab etiladi.

Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyev tomonidan tahrirlangan "O'zbekistonda xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori inson salomatligini ta'minlashda, tibbiyot va xalq tabobatini birgalikda faoliyat ko'rsatishini talab etmoqda. Qaror matnida o'tkir va murakkab kasalliklarni davolashda xalq tabobati muhim ahamiyat kasb etishi qayd etilgan. Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda bozor iqtisodiyotida, xalq ehtiyojlarini qondiradigan mahsulotlarning soni hamda sifati ortib bormoqda. Biz iste'mol qiladigan meva-sabzavotlarimiz asosiy tarkibini uglevodlar, vitaminlar va shu kabi darmondorilar tashkil etadi. Inson hayotini o'simliklar olamisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Insonning yashashi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, dori-darmon, vitamin shakar moddalari, yog'lar, efir moylari va boshqa mahsulotlar o'simliklardan olinadi. O'simliklar o'z navbatida tabiiy kimyoviy laboratoriya vazifasini o'taydi

va murakkab tuzilgan organik birikmalarni sintez qiladi. Bu birikmalar esa xalq xo'jaligining turli tarmoqlari uchun qimmatbaho xom ashyo manbalari bo'lib xisoblanadi. Shu sabali madaniy o'stirilayotgan va yovvoyi o'simliklarni o'rganish, ulardan unumli foydalanish xalq xo'jaligimizning asosiy vazifalaridan biridir.

Hozirgi vaqtda tibbiyotda 250 ga yaqin o'simliklarning mahsulotidan foydalaniladi. Shu ko'rsatilgan dorivor o'simliklar mahsulotining 48 foizi yovvoyi holda o'sadigan o'simliklardan, 30 foizi turli xo'jaliklarning dorivor o'simliklar o'stiriladigan dalalardan unumli foydalaniladi.

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyevning 2016-yil 31-oktabrdagi "Aholini tabobat yo'lida tabiiy dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga doir chora tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida tibbiyotda kimyoviy vositalarga



nisbatan, tabiiy dori vositalardan foydalanishga e'tibor qaratilmoqda.

Masalan, nok, yong'och, lavlagi ham biologik faol moddalar saqllovchi o'simliklardan hisoblanadi. Xalq tabobatida nok, lavlagi, yong'och ko'plab kasalliklarni davolashda foydalanishgan.

Nok – olmadan keyin eng mashhur mevalardan biridir. Nok o'zining to'yimligi bilan farqlanadi, kam kaloriyaligi sababli (100gramda 50kkal) u hammabop foydali mevadir.

Nokda quyidagi vitaminlar uchraydi: A, C, PP, K, B guruxi va quyidagi foydali moddalar va mikroelementlar masalan fol kislotasi, pektin, oltingugurt, kaliy, fosfor, rux, temir, miss, kobalt, hamda kletchatka va oshlovchi moddalar aniqlangan

Nok shirinligi olmadan yuqori bo'lsa ham, unda shakar nisbatan ozdir. Nokda glyukozaga qaraganda fruktoza ozgina ko'p bo'lganligi sababli chuchuk-shirin noklar semirayotgan yoki qandli diabet kasallilarga taklif etiladi, insulinga talab kamayishiga olib keladi.

Nok immunitetni mustahkamlaydi va organizmning qo'riqllovchi reaksiyasini oshiradi, infeksiyalar bilan kurashadi, shamollashni yengadi, tushkunlik depressiya holatda ham foydalidir. Bunday foydali xossalari unda efir moyi bo'lganidandir.

Yurak mushaklari yaxshi ishlashi uchun kaliy kerak, u nokda katta miqdorda bo'ladi. U xujayralar regenerasiyasida foydalidir. Noklar termik ishlov berganda ham foydali xossalarini saqlaydi, shu sababli ularni pishirish, quritish va har xil pishiriqlar tayorlashda qo'llaniladi. Erkaklar nokdan tanovul qilganda prostatit kasalidan davolanadi. Nokning 100 gramida, kaloriyasi 42kkal, Oqsil 0,4gr, yog' 0,3gr, uglevodlar 10,9gr, glikemik indeks 50. Organik kislot,

fermentlar, vitaminlar C, B1, P, PP, karotin, mikroelementlar har xillar topilgan. Nok tarkibida mo'l fol kislotasi bor u bolalar va homilador ayollarga foydalidir. Nok mevalari diabet kasallarida foydali. Sil kasalida ham yeyish kerak. Mayda yovvoyi noklarda arbutin, xlorogen kislotasi va vitamin P zahirasidir. Nokning yosh barglarida zambrug'ga qarshi moddalar mavjud, shu sababli dermatit va zambrug'li kasallarida qo'llaniladi. bu mevalar anemiyaning davolashda foydali.

Homilador ayollarga va emizakli bolalarga nok mevasi tavsiya etiladi, u esa qon xujayralari hosil qilishda o'rni bor. Bronxitdan qutilishga bir choy qoshiq shipovnik siropini bir stakan nok soki bilan aralashtirib kunda uch marta yarim stakandan ichish tavsiya etiladi. Pishirilgan va qovurilgan noklar sil va bronxit kasallarida tavsiya etiladi. Nokda tannin bo'lgani sababli ich ketganda quritilgan nok mevalari kompoti eng maqbul doridir. Doktorlar va diyetologlar quyidagi kasallarda nok mevasini tavsiya qiladilar: immunitet pasayganda, fizik mualaja yarak urushi tezlashganda, tez charchaganda (bir nechta nok yeyilsa mushaklardagi og'riq pasayadi), bosh aylanganda, tushkunlik-depressiyada, infeksiya kasallari oldini olishda-profilaktikada, kapilyatlar tomirlar o'tqazuvchanligi buzilganda, shamollashga moyillikda, kuchli yo'talganda, pochkada kuchli shamolash bo'lganda, modda almashirish buzilganda, shu jumladan semirish alomatida, ichak faoliyati buzilganda, apetit yo'qolganda, prostatitni davolashda, yaralar bitishida nok terini tezroq regenerasiyaladi, o'z holiga keltiradi. Yosh barglari shamollashni yo'qotadi, zambrug'larni davolaydi, dermatitni davolashda foydali.



Tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasida (TIFN) 0706100009 kod raqami repa (sholg'om) uchun ajratilgan. Boshqa sholg'omsimon ildiz mevalar uchun 0706909009 kod raqami ajratilgan bo'lib, ularga rediska, turp va boshqalar mansubdir. TIFN da turp uchun alohida raqam ajratilmagani eksport-import jarayonlarini qonuniy amalga oshirishda bir oz qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun turp mahsuloti uchun biz quyidagi kod raqamini tavsiya etamiz: 0706909008. TIFN da 0706909009 raqami esa rediska, daykon va boshqa sholg'omsimon ildizmevalari uchun taaluqli bo'lib qolaveradi. Mana shu yerda internet ma'lumotlariga ko'ra Rossiyada sladkaya redka-daykon turpi quyidagi kod bilan chiqqan 07069090091-bizdagi kodlash qonuniga to'g'ri kelmaydi, chunki unda 11 raqam mavjud. Redis-rediska esa internetda quyidagi shtrix kod bilan sotuvga chiqarilgan: 7290100781906.

Xalqaro klassifikasiyaga binoan kod 0802-boshqa yong'oqlar, yangi yoki quritilgan, po'chog'idan tozalangan yoki tozalanmagan, po'stlog'I bilan, po'stloqsiz kodi ma'lum.

-Grek yong'ogi

0802310000-po'chog'I bilan

0802320000-po'chog'idan tozalangan

Shularga asosan quyidagicha kodlash tarafdorimiz:

0802310001-yetilmagan (yashil) po'stlog'I bilan

0802310002-qurigan po'stlog'I bilan

0802310009-boshqalar

0802320000-po'chog'idan tozalangan (mag'iz)

Demak respublikadan chetga chiqariladigan maxsulotlarni sertifikat kodlarining xalqaro standartlarga mos kelishi ularning xaridorligini oshiradi, hamda inovazion takliflar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

References:

1. Mamatqulova, S. A., Dexqanov, R. S., & Abdullayev, S. V. (2021). DESIGNATING SOME FRUITS AND VEGETABLES ACCORDING TO FEAN NG. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(2), 94-101.
2. Хайдарова, Д., Сиддиков, Г., Абдуллаев, Ш., & Маматкулова, С. (2021, August). PRELIMINARY RESULTS OF INTRODUCTION OF THE MEDICINAL PLANT *Scutellaria comosa*: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1398>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
3. Mamatqulova, S. A., Dexqanov, R. S., & Abdullayev, S. V. (2021). CLASSIFICATION AND CERTIFICATION OF BIOLOGICALLY ACTIVE SUBSTANCES BY THE CHEMICAL COMPOSITION Isolated from *HELIANTHUS TUBEROSUS* PLANT BY TIFN TN. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(2), 70-77.
4. Dehqonov R.S., Mamatqulova S.A., Nuraliyev SH.B. Yernok o'simligidan polisaxarid-pektin moddasini ajratib olish va uning ayrim xossalarini tahlil qilish. // Физиология ва валеология асослари фанларининг долзарб муаммолари. Республика Онлайн илмий конференция материаллари. Наманган. НамДУ. 2020 й. 104-107 бетлар.



5. Хайдарова, Д., Сиддиқов, Г., Абдуллаев, Ш., & Маматкулова, С. (2021, August). PRELIMINARY RESULTS OF INTRODUCTION OF THE MEDICINAL PLANT *Scutellaria comosa*: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1398>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
6. Mamatkulova, S., Mamajonov, G., Turdalieva, H., & Umurzakova, G. (2021, August). AGROTECHNOLOGY OF CULTIVATION OF REPAIR AND ITS MEDICINAL PROPERTIES: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1390>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
7. Абдуллаев, Ш. В., Маматкулова, С. А., & Назаров, О. М. (2019). Компонентный состав экстрактов *Raphanus sativus* L. произрастающего в Узбекистане. *Universum: химия и биология*, (8 (62)), 29-31.
8. ДЕХКАНОВ, Р., АБДУЛЛАЕВ, Ш., & МАМАТКУЛОВА, С. (2021). *HELIANTHUS TUBEROSUS* L. КАК ИСТОЧНИК УГЛЕВОДОВ. *РЕСУРСОЗБЕРІГАЮЧІ ТЕХНОЛОГІЇ ЛЕГКОЇ, ТЕКСТИЛЬНОЇ І ХАРЧОВОЇ ПРОМИСЛОВОСТІ*, 137.